# TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNING SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

**Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi**
Andijon davlat chet tillari instituti xodimi
**E-mail:** saidabonu73@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirish bugunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy ta'lim dasturlari va baholash tizimlari yordamida yetuk, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlash muhimligi ta'kidlanadi. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ta'lim sifati bilan bog'liq omillar va bu omillarni boshqarishning innovatsion yondashuvlari, jumladan, ta'lim mazmuni, boshqaruv, sifat menejmenti va texnologik omillar tahlil qilingan. Maqolada ta'lim jarayonida texnologik omillarning ahamiyati, ularning ta'limni samarali, moslashuvchan va interaktiv qilishdagi roli hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi hissasi batafsil o'rganilgan.
**Kalit so‘zlar:** Ta’lim mazmuni, innovatsiya,menejment, ta’lim sifati, texnologik omillar, boshqaruv, sifat menejmenti, baholash tizimi, innovatsion yondashuvlar.

Jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan davr mobaynida ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratish darkordir. Buning asosiy sababi shundaki, har bir jamiyatda reja qilingan strategiyalar asosida ish olib borib ko‘zlangan maqsadga erishish va bu borada dunyo qarashi keng, zamonaviy, innovatsion hamda tanqidiy fikrlash qobilyatiga ega bo‘lgan yetuk kadrlarning safi kengayishi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli hozirda, yurtimizdagi ta’lim tizimini rivojlantirish hamda uni dunyo standartlari darajasiga chiqarish uchun qator istiqbolli rejalar ishlab chiqildi.. Oliy ta’lim tizimidagi barcha tarmoqlar isloh etilib, mavjud muammo va kamchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Mazkur zamonaviy ta’lim dasturlari va baholash tizimi zamonaviy fikrlash qobilyatiga ega bo‘lgan yosh kadrlarni yetishtirib chiqarishda samarali ta’sir o‘tkazmoqda.

Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ta’limni modernizatsiya qilishda muassasa darajasini uning sifati belgilab beradi va muassasa nufuzini oshirish uning sifatini aniqlash, baholash va ta’minlashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan amalga oshiriladi.

Ta’lim sifatiga bevosita ta’siri bilan birga bilvosita ta’sir qiluvchi omillar – mamlakat iqtisodiyoti, mintaqaning ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayoti, fan yutuqlari va boshqalar ham o‘quv jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qitish sifati – davlat, jamiyat va shaxsning ta’lim ehtiyojlarini qondira oladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan, kombinatsiyalashgan pedagogik nazariya sifatida qaraladi. [4] Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillar va to‘siqlarni bartaraf etish uchun bugungi kunda mamlakat ta’lim tizimining asosiy vazifasini belgilab olish muhim. Bu shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlarini ta’minlash orqali ta’limning zamonaviy sifatini oshirish hamda ta’lim jarayonini rivojlantirish va ta’lim sifatini ta’minlash orqali amalga oshiriladi.
Bunda ta'lim jarayonining zamonaviy rivojlanishi va bu jarayonda texnologik omillarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning

muhimligi ta'kidlanib, o'qitish jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilish uchun texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, texnologik omillar orqali ta'lim mazmunini boyitish, axborotga keng kirish imkoniyatini ta'minlash, individual yondashuvni rivojlantirish va nazorat qilishning samaradorligi oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu omillar ta'lim jarayonini sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta'lim to‘g‘risidagi” qonuni (1997-yil 29-avgust).
2. Сандҳя Кҳедекар. Едусатионал Манагмент, ТССЕР ИИИ. 1 Фунстион оф Едусатион Манагмант. 2007
3. Красиков А.С. Оценка качества труда руководителя сферы образования. Ученое пособие. Российская академия образования. Вологодский Институт развития образования. - Санкт-Петербург, 2006
4. П. Третйаков и др. “Регион: управление образование образованием по резултатам” - теорийа и практика, М., 2001 г.

**Foydalanilgan vebsaytlar:**

1.https://www.slideshare.net/slideshow/talim-mazmunipptx/262827854
2.[www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi rasmiy vebsayti.
3.[www.unesco.org](http://www.unesco.org) – UNESCO ta'lim va innovatsiyalar bo'yicha rasmiy vebsayti.
4.[www.edutopia.org](http://www.edutopia.org) – Ta'lim metodikasi va texnologiyalari bo‘yicha ilmiy resurslar.
5.[www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) – Ta'lim sifati va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tadqiqotla